

Muammoli ma'ruza

2019 yil 1 mart kuni TIQXMMI 7-maruzalar zalida, QSXET, GIM va QXM fakultetlari 4 kurs talabalari ishtirokida "ARTEL kompaniyasi ishlab chiqarayotgan mahsulotlari, texnologiyalari, mutaxassislariga talablar" mavzusida ma'ruza o'tkazildi. Mazkur tadbirda QSXET va QXM fakultetlari professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi. **Artel** kompaniyasi O'rta Osiyodagi eng katta va yagona maishiy texnika ishlab chiqarish tizimidir. Kompaniya O'zbekistonda tashkil topgan bo'lib, yirik maishiy texnika va elektron vositalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Kompaniya o'z faoliyatini 2011 yilda boshlab, sifatli, ishonchli va qulay mahsulotlari bilan O'zbekistonda tanilib ulgurdi. Bugungi kunda kompaniya maishiy texnikalarning 10 dan ortiq turini ishlab chiqarmoqda: kondensiyonier, changyutgich, mikroto'lqinli pech, gaz plitalari, elektr plitalari va gazu elektr bilan ishlaydigan qo'shma plitalar, oshxona texnikalari, kichik elektr pechlari, televizorlar, muzlatkichlar, telefon va elektr suv isitgichlar. **Artel** kompaniyasining zavodlariga dunyoning yetakchi korxonalarini uskunalari o'rnatilgan. Bundan tashqari, kompaniyada mahsulotlar sifatini muntazam ravshda tekshirib turish uchun laboratoriyalar ham ishlaydi.



Zavodda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarni saqlash uchun **Artel** kompaniyasi o'zining 50000 kvadrat metrga teng maxsus maydoniga ega. Bu maydoning asosiy vazifasi mahsulotlarni qabul qilish, saqlash va kompaniyaning 5 baza **Artel** firmaviy magazinlarga butun O'zbekiston bo'ylab yetkazib berishdir. Bugungi kunda **Artel**ning maishiy texnikalari Qozog'iston, Qirg'iziston, Afg'oniston, Tojikiston, Turkmaniston, Rossiya(Maxachkala), Ukraina, Ozarbayjon va Gruziya davlatlariga chiqarilmoqda. Hozirda **Artel** kompaniyasining mahsulotlarini Yevropaga, Rossiyaning ba'zi shaharlari va Pokistonga chiqarish masalasida muzokaralar olib borilmoqda. Kompaniyaning dovrug'i tez suratda bundan ham kengroq doirada tarqalmoqda.

Avvalo ta'kidlab o'tish lozimki, biz har doim hamkorlar tanlashga juda katta e'tibor beramiz. Chunki ishonchli hamkorlar bu bizning muayyan imidjimiz shakl-lanishi va uzoq muddatli hamda ustuvor aloqalar kafola-tidir. Biz o'z sohasida katta muvaffaqiyat qozonganlar bilan hamkorlik qilamiz. Biz hamkorlik qilayotgan kompaniyalar maishiy texnika bozorida kamida 20 yillik tajribaga ega, o'z navbatida ustuvor va professional darajadadir. Bizning bunday sifatli va ayni paytda nisbatan arzon mahsulotlar ishlab chiqarishga erishishimizga ishlab chiqarishdagi chiqimlarni ixchamlashtirish sabab bo'ldi. Shirkat faoliyati davomida to'plagan ish tajribasi mahsulotlarning ba'zi qismlarini mahalliy xom ashyodan tayyorlash imkoniyatini yaratdi va bu o'z o'rnida tayyor maishiy texnikalarimiz narxi pasayishiga xizmat qildi.



Bizning xorijiy hamkorlarimizda mahsulotlarimizga kafolat berish uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ma'ruzada oliy ma'lumotli mutaxassislariga ishga kirish uchun va davomida malaka oshirish (stajirovka) va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan talablar to'liq tushuntirildi. Ma'ruza davomida qatnashuvchilar 1-bosqich test topshirishdi.